



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбар Муртазаева МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚА ДАВЛАТЛАРИДА ИЛМ-ФАННИНГ ФЕМИНИЗАЦИЯЛАШУВИ.....	5
2. Тўлқин Алиев ТОШКЕНТ ШАҲРИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	16
3. Нодирабегим Ваисова ВКЛАД Ю.Ф. БУРЯКОВА В ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СОГДИАНЫ.....	25
4. Sevara Elmurodova MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	32
5. Risqiniso Maxmudova O'ZBEKISTON SSRDA ALIFBO SIYOSATINING GEOSIYOSIY MAQSADLARI.....	38
6. Mohira Matnazarova ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.....	44
7. Nargiza Raxmatova O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN.....	48
8. Фаррух Разаков СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВОМ ШЕЙБАНИДОВ.....	54
9. Hilola Normamatova CHOCHDA ZARB ETTIRILGAN G'ARBIY TURK XOQONLIGI TANGALARIDAGI DINIY- SIYOSIY RAMZLAR.....	63
10. Нодира Холмонова РОССИЯНИНГ ХИВА ХОНЛИГИДА ЮРИТГАН ИҚТИСОДИЙ - ПУЛ СИЁСАТИ (айрим тадқиқотлар мисолида).....	67
11. Rashid Xolmurodov JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI.....	72
12. Davlatbek Qudratov O'ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.....	79



Sevara Aliqulovna Elmurodova,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi

MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

For citation: Sevara A. Elmurodova. STAGES AND MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17966890>

АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlil etilgan. Davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni kengaytirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, nodavlat sektorini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida “Ilk qadam” dasturi hamda O‘zbekistonda rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tub yangilanishlar mazmun-mohiyati ilmiy tarzda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, maktabgacha ta’lim, tarixiy rivojlanish, islohotlar, huquqiy-qonunchilik, davlat siyosati, islohot, uzluksiz ta’lim, “Ilk qadam” dasturi, ta’lim sifati.

Севара Аликуловна Элмуродова,
Преподаватель кафедры истории Узбекистана
Узбекского государственного университета мировых языков

ЭТАПЫ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются реформы в системе дошкольного образования Узбекистана в годы независимости. Рассматриваются основные направления государственной политики по расширению охвата дошкольным образованием, внедрению современных педагогических технологий, развитию негосударственного сектора и повышению квалификации педагогов. Также научно исследованы содержание и суть коренных реформ, реализуемых в системе дошкольного образования в рамках программы «Первый шаг» и Стратегии действий по 5 приоритетным направлениям развития Узбекистана.

Ключевые слова: независимость, дошкольное образование, историческое развитие, реформы, правовая и законодательная база, государственная политика, реформа, непрерывное образование, программа «Первый шаг», качество образования.

Sevara Alikulovna Elmurodova,
Lecturer, Department of History of Uzbekistan,
Uzbek State University of World Languages

STAGES AND MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the reforms implemented in the preschool education system of Uzbekistan during the years of independence. It discusses the main directions of state policy aimed at expanding preschool coverage, introducing modern pedagogical methods, developing the private sector, and improving teacher qualifications. The content and essence of fundamental reforms implemented in the preschool education system within the framework of the First Step program and the Action Strategy for 5 priority areas of development of Uzbekistan were also scientifically studied.

Index Terms: independence, preschool education, historical development, reforms, legal and legislative framework, state policy, reform, continuing education, "First Step" program, quality of education.

Dolzarbligi:

Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati ta'lim tizimining mavjud intellektual salohiyatini saqlab qolish, demokratik fuqarolik jamiyati va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida har tomonlama rivojlangan, yetuk shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shunday ekan, ham jismonan, ham ma'nan sog'lom avlodni voyaga yetkazish asosiy maqsadlar sirasiga kiradi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda, mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar ilmiy tahlil etilgan. F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.N.A'zamovalar "Maktabgacha pedagogika" hamda Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" darsliklarida maktabgacha pedagogika fanining asosiy masalalari, uning nazariy-metodologik asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, mehnat tarbiyasi berishning mazmun-mohiyati, vositalari, shakl va usullari, O'zbekistonda maktabgacha ta'limni tashkil etishning tarixi, maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga zamonaviy pedagogik, innovatsion texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-uslubiy xususiyatlari to'xtatilib o'tgan. Shuningdek, bu ma'lumotlar darslikda atroflicha yoritilgan.

Tadqiqot natijalari:

O'zbekiston yoshlar davlatidir. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 5 yoshgacha bo'lgan go'daklar soni 4,4 million nafar, 5–13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafar, 14–30 yoshlar oralig'idagi yoshlar soni 9,6 million nafarni tashkil qiladi. Bolalarga mehr-muhabbat, ularning salomatligi, farovonligi va ta'lim -tarbiyasi haqida qayg'urish, har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlod etib tarbiyalash O'zbekistonning qadimiy merosi ekanligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bolalar va yoshlar tarbiyasi mamlakatda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu bois 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi yosh suveren O'zbekistonning ta'lim sohasidagi ilk islohotlardan biri bo'ldi.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilgach, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tubdan o'zgarib boshladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, korxonalar va muassasalarni xususiy lashtirish jarayonlari boshlangani natijasida sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan ijtimoiy infratuzilma – jumladan, korxonalar qashli bolalar bog'chalari ko'plab yopilib ketdi. Chunki ularning aksariyati mahalliy byudjet yoki korxonalar mablag'i hisobidan moliyalashtirilgan edi[1].

Natijada 1991-yilda mamlakatda faoliyat yuritgan 9444 ta maktabgacha ta'lim muassasasi soni 1995-yilga kelib 6420 taga, 2000-yillarga borib esa 4500 taga kamaydi[2]. Bu jarayonda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 1990-yillardagi 52 foizdan 2000-yillarda 26 foizgacha tushib ketdi[3]. Ayniqsa, qishloq joylarda bog'chalar sonining kamayishi ayollar bandligiga, bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda ta'lim sohasida tizimli islohotlarning huquqiy poydevori yaratiladi va quyidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yaratildi:

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (1997-yil 29-avgust)[4] — bu hujjat birinchi bor maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida e'tirof etdi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997-yil 29-avgust)[5] — bu dasturda maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, o'quv-metodik bazani yangilash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi (1992-yil) har bir fuqaroning ta'lim olish huquqini kafolatlab, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy asos yaratdi[6].

Dastlabki yillarda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham og'ir ahvolda edi.

Xususan:

1991–1995-yillar oralig'ida mavjud bog'chalarning 40 foizdan ortig'i ta'mirtalab holga kelgan;

issiqlik tizimlari, o'yin maydonchalari va o'quv jihozlari yetishmas edi;

bolalar uchun sanitariya-gigiyena sharoitlari ham talab darajasida emas edi.

Shunga qaramay, ayrim hududlarda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Masalan, 1998–2000-yillarda Farg'ona viloyatida 112 ta, Samarqand viloyatida 128 ta bog'cha kapital ta'mirdan chiqarilgan. 1990-yillarda aholining ijtimoiy ongida “uy sharoitida bola tarbiyasi” g'oyasi kuchayib, bog'chaga borishning ahamiyati pasaygan edi. Shu sababli, 1999-yil “Ayollar yili” munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturi doirasida hukumat tomonidan maktabgacha ta'limning ahamiyatini targ'ib etuvchi ijtimoiy dasturlar amalga oshirildi. Jumladan, “Sog'lom avlod uchun” jamg'armasi tashabbusi bilan erta rivojlanish, gigiyena, sog'lom ovqatlanish va o'yin orqali ta'limga oid ommaviy kampaniyalar o'tkazildi. Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi murakkab o'tish davrini boshdan kechirdi. Ammo aynan shu davrda maktabgacha ta'limning huquqiy, tashkiliy va konseptual asoslari yaratildi. 1997-yilda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” keyingi bosqichdagi tub islohotlar uchun mustahkam zamin bo'ldi.

2000-yillarning oxiri va 2010-yillarning boshlariga kelib, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi qamrovi 25–27 foiz atrofida edi. Bu holat mamlakat rahbariyatini tizimni qayta tiklash, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan kengroq qamrab olish chora-tadbirlarini kuchaytirishga undadi. 2010-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–1261-sonli Farmoni bilan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi qabul qilinib, unda bolalar salomatligini saqlash, ularni maktabga tayyorlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish chora-tadbirlari belgilandi[7]. Mazkur dastur doirasida maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'yinchoq va didaktik materiallar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, pedagogik xodimlar malakasini oshirish markazlarini yangilash ko'zda tutilgan edi[8].

2012–2014-yillar davomida “Mustahkam oila yili”, “Sog'lom bola yili” davlat dasturlari doirasida 300 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari qaytadan ta'mirlandi va yangilandi. Shuningdek, ushbu yillarda ayollar bandligini oshirish maqsadida ish joylarida “oilaviy bog'chalar” (korxonada huzuridagi kichik guruhlar) tashkil etish tajribasi joriy etildi. Bu esa sohaga xususiy sektor ishtirokini asta-sekin kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari uchun imtiyozli to'lov tizimi joriy qilindi, bu esa kam ta'minlangan oilalar uchun bog'chalar eshigini qayta ochdi[9].

2014-yil 12-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 164-son qaroriga muvofiq:

ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va psixologik innovatsion yondashuvlar joriy etildi; maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat talablari yangidan ishlab chiqildi; o'quv-uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar yangilandi; tarbiyachilarning malaka oshirish kurslari 3 yilda bir marta o'tkazilishi belgilandi.

2015-yilda esa PF-4707-sonli Prezident Farmoni bilan qabul qilingan "2015–2020-yillarda ta'lim va fan tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur farmonda belgiangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, davlat dasturlari va qarorlar natijasida 2010–2016-yillar oralig'ida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

1200 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasasi ta'mirlandi;

250 dan ziyod yangi bog'chalar qurildi;

bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 2016-yilga kelib 21,4 foizga yetdi;

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 4 xil o'quv dasturi ishlab chiqildi. Jumladan, "Ilk qadam" dasturining tajriba nusxasi 2016-yilda sinov tariqasida joriy etildi.

Mazkur natijalar tizimning keyingi – 2017-yildan boshlangan Yangi O'zbekistondagi tub islohotlar davri uchun mustahkam zamin yaratdi. 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Harakatlar strategiyasi"da maktabgacha ta'limni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Aynan shu yildan boshlab tizimni boshqarish, moliyalashtirish va qamrovni kengaytirish borasida mustaqil vazirlik tuzishga tayyorgarlik ko'ridi. 2010–2016-yillar davri maktabgacha ta'lim tizimini tiklash va modernizatsiya qilish bosqichi sifatida tarixda o'z o'rniga ega bo'lib, bu yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, ijtimoiy dasturlar va xalqaro hamkorlik loyihalari soha rivojining yangi bosqichiga yo'l ochdi. Aynan shu davrda tizimga innovatsion pedagogik yondashuvlar kirib keldi, moddiy-texnik baza tiklandi va keyingi yillardagi islohotlar uchun mustahkam poydevor yaratildi. 2017-yil O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi tarixida tub burilish yili bo'ldi. Shu yili Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va bolalarni sifatli ta'lim-tarbiya bilan qamrab olish darajasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar boshlandi. Eng muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori bo'ldi. Ushbu qaror bilan mamlakatda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bu bilan tizim mustaqil davlat boshqaruvi darajasiga ko'tarildi. Mazkur qarorga muvofiq quyidagi maqsadlar belgilandi:

bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish;

maktabgacha ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish;

nodavlat sektorini rivojlantirish;

pedagoglar salohiyatini oshirish;

davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish.

2018-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur ilg'or xorijiy tajribalarga (Montessori, Reggio Emilia, Vygotskiy nazariyasi) asoslangan bo'lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilgan. 2017-yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi atigi 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 70 foizdan oshdi[10]. Bunga quyidagi islohotlar sabab bo'ldi:

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida bog'chalar tashkil etish mexanizmi ishlab chiqildi;

Nodavlat MTTlar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etildi (PQ-3955, 2018-yil 5-sentabr);

Aholi yashash punktlarida kichik tipdagi – oilaviy, mini va mobil bog'chalar tashkil etildi;

Xalqaro tashkilotlar (UNICEF, JICA, KOICA, World Bank) bilan hamkorlikda infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

Masalan, Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "O'zbekistonda maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish loyihasi" doirasida 2020-yilgacha 2000 dan ortiq bog'chalar qayta ta'mirlandi va yangi o'quv-uslubiy vositalar bilan ta'minlandi. 2019-yilda Prezidentning PF-5712-

sonli Farmoni bilan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi va quyidagi maqsadlar belgilandi:

- 2030-yilgacha bolalarni 100% maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish;
- maktabgacha ta’lim pedagoglari uchun malaka toifalari tizimini joriy etish;
- maktabgacha ta’lim bakalavriat yo‘nalishlarini kengaytirish;
- raqamli platformalar orqali masofaviy o‘qitish tizimini rivojlantirish.

Natijada 2020-yildan boshlab Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutlarida maktabgacha ta’lim bo‘yicha magistratura yo‘nalishlari ochildi. 2020-yil pandemiya davrida maktabgacha ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim elementlari joriy qilindi. Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan “Ilm makonim” onlayn platformasi va “Telebog‘cha” loyihasi ishga tushirildi[11]. Bundan tashqari, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-sonli qarori asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini raqamlashtirish dasturi boshlangan[12]. Unga ko‘ra:

- barcha MTTLarda elektron navbat tizimi joriy etildi;
- “mtt.edu.uz” yagona axborot bazasi ishga tushdi;
- pedagoglar faoliyati uchun elektron portfoliolar yaratildi.

2021-yilda Prezident qarori bilan Maktabgacha ta’lim vazirligi Xalq ta’limi vazirligi bilan birlashtirilib, yangi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi[13]. Bu o‘zgarish uzluksiz ta’lim tizimini yagona metodik va ma’muriy boshqaruv ostida shakllantirish imkonini berdi. Shu bilan birga, “Erta rivojlanish markazlari” konsepsiyasi joriy etilib, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ham qamrab olish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

2022–2024-yillarda 3000 dan ortiq yangi bog‘chalar foydalanishga topshirildi, pedagoglar oylik maoshi 2 baravar oshirildi, “Ilk qadam” dasturi yangilandi (2023-yil tahriri), xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma STEAM loyihalari yo‘lga qo‘yildi[14].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Islohotlar natijasida tizim boshqaruvining mustaqil modeli yaratildi, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi ikki baravardan ortiq oshdi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy etildi va xalqaro tajriba asosida yangi dasturlar ishlab chiqildi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tizimi Markaziy Osiyoda eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va statistika vazirligi joriy arxivi, 1992-yil hisobotlari//.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2000-yil//. “Demografik vaziyat”
3. UNESCO Institute for Statistics, Education Indicators for Uzbekistan, 2002//. <https://www.unesco.org/en>
4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1997-yil 29-avgust//<https://lex.uz/ru/docs/-48328?ONDATE=30.09.1997>
5. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1997-yil 29-avgust//<https://lex.uz/docs/-48401>
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr// <https://lex.uz/docs/-20596>
7. Prezident Farmoni PF–1261, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risida, 2010-yil 27-yanvar// <https://lex.uz/docs/-1591784?type=doc>
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, “Ilk qadam” o‘quv dasturi sinov joriyoti bo‘yicha ma’lumotnoma, 2016-yil//<https://lex.uz/uz/docs/>
9. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi loyihasi”, 2016-yil sentabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi joriy arxivi, 2020-yil ma‘lumotlari.
11. Maktabgacha ta‘lim vazirligi, “Telebog‘cha” loyihasi bo‘yicha hisobot, 2020-yil.
12. Prezident Qarori PQ–4884, “Raqamli ta‘lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabr.
13. Prezident Qarori PQ–5125, “Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimini integratsiya qilish to‘g‘risida”, 2021-yil 19-fevral.
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, 1991–2000-yillar hisobotlari.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 2014-yil.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3305-sonli qarori, 2017-yil 30-sentabr.
17. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent: 2018.
18. Sh.Sodiqova Maktabgacha pedagogika T. Fan va texnologiya 2012 y
19. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, M.A‘zamova Maktabgacha pedagogika-Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019y.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000